


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida Farg'ona viloyatida 4338 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 794 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3526 ta (13,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29529 tani tashkil etgan.



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


| Tarmoqlar nomi | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan |
|--|-------------------|-------------------------|-----------------------|
|  Qishloq va o'rmon xo'jaligi | 1555 | 1536 | 249 |
|  Sanoat | 6310 | 6268 | 1156 |
|  Qurilish | 2469 | 2443 | 464 |
|  Savdo | 6326 | 6231 | 889 |
|  Tashish va saqlash | 1189 | 1179 | 178 |
|  Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar | 1363 | 1353 | 230 |
|  Axborot va aloqa | 996 | 982 | 88 |
|  Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 709 | 696 | 121 |
|  Boshqa turlari | 8612 | 8440 | 963 |



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 29529 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,4 % sanoatda, 8,3 % qurilishda, 21,4 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,4 % axborot va aloqa, 2,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5472 ta), Qo'qon shahri (4077 ta), Marg'ilon shahri (2905 ta) va Uchko'prik tumani (1549 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (719 ta), Furqat tumani (698 ta) hamda Yozyovon tumani (658 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, *mingda*.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **29128** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3557 ta (13,9 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,4 % savdo, 21,5 % sanoat, 8,4 % qurilish, 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 3,4 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5368 ta), Qo'qon shahri (4023 ta), Marg'ilon shahri (2892 ta), Uchko'priq tumani (1510 ta) va Dang'ara tumani (1389 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (719 ta), Furqat tumani (690 ta) hamda Yozyovon (656 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 23,4 ming

01.01.2018 y.

• 25,6 ming

01.01.2019 y.


• 29,1 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2018 yil yanvar-dekabr holatiga 4338 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,4 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (738 ta), Qo'qon (581 ta), Marg'ilon (373 ta) shaharlarida, Oltiariq (249 ta), Uchko'prik (246 ta) va O'zbekiston (221 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (90 ta) hamda Yozyovon (90 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1156 ta), savdoda (889 ta), qurilishda (464 ta), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (249 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (230 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (88 ta), tashish va saqlashda (178 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (121 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.01.2017 y. | | 01.01.2018 y. | | 01.01.2019 y. | |
|--|-----------------|--------------|-----------------|--------------|-----------------|--------------|
| | Korxonalar soni | ulushi, % | Korxonalar soni | ulushi, % | Korxonalar soni | ulushi, % |
| Viloyat bo'yicha jami | 2632 | 100,0 | 3544 | 100,0 | 4338 | 100,0 |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi | 212 | 8,1 | 283 | 8,0 | 249 | 5,7 |
| Sanoat | 770 | 29,3 | 1144 | 32,3 | 1156 | 26,6 |
| Qurilish | 240 | 9,1 | 255 | 7,2 | 464 | 10,7 |
| Savdo | 645 | 24,5 | 779 | 22,0 | 889 | 20,5 |
| Tashish va saqlash | 127 | 4,8 | 206 | 5,8 | 178 | 4,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 146 | 5,5 | 212 | 6,0 | 230 | 5,3 |
| Axborot va aloqa | 171 | 6,5 | 107 | 3,0 | 88 | 2,0 |
| Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 42 | 1,6 | 81 | 2,3 | 121 | 2,8 |
| Boshqa turlari | 279 | 10,6 | 477 | 13,5 | 963 | 22,2 |

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingda






TIJORAT KORXONALARNI.

2018 yil 1 yanvar holatiga 23694 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar–8492 ta, oilaviy korxonalar – 2757 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11764 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 54 tani va boshqalar 627 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 283 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 81 taga yoki 40,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 201 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 201 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 104 ta (36,7 %), Qo'qon 41 ta (14,5 %), Marg'ilon 21 ta (7,4%), Quvasoy 16 ta (5,7 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 15 ta (5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,7 %), Furqat tumani 3 ta (1,1 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,1 %), Bag'dod tumani 5 ta (1,8 %), Buvayda tumani 4 ta (1,4 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 186 ta (65,7 %), savdoda 38 ta (13,4 %), boshqa turlarida esa 14 ta (4,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 4 ta (1,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (3,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (2,6 %), qurilishda 7 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 6 ta (2,2 %)

va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 80 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga ko'paygan yoki 77.8 foizga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 13 ta, Rossiya Federatsiyasi - 9 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 3 ta, Turkiya Respublikasi - 9 ta, Eron Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston- 2 ta, Buyuk Britaniya -1 ta, Saudiya Arabiston - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 43 ta, savdoda 19 ta, sog'liqni saqlashda 3 ta, qurilishda 5 ta va boshqa korxonalarda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

| | 2017 yil yanvar-dekabr | | 2018 yil yanvar-dekabr | |
|--|------------------------|--------------------------|------------------------|--------------------------|
| | Jami | Umumiy soniga nisbatan % | Jami | Umumiy soniga nisbatan % |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi | 1 | 2,2 | 5 | 6,3 |
| Sanoat | 32 | 71,1 | 43 | 53,8 |
| Qurilish | 2 | 4,4 | 2 | 2,5 |
| Savdo | 5 | 11,1 | 19 | 23,8 |
| Tashish va saqlash | 2 | 4,4 | 1 | 1,3 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 | 4,4 | 1 | 1,3 |
| Axborot va aloqa | | | 2 | 2,5 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | | | 3 | 3,8 |
| Boshqa turlari | 1 | 2,2 | 4 | 5,0 |




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23,5 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 14,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4445 tasi (18,9%) Farg'ona, 3493 tasi (14,8 %) Qo'qon, 2557 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1292 tasi (5,5 %) Uchko'prik va 1155 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23542 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6297 tasi (26,7%) – savdoda, 6255 tasi (26,6%) - sanoatda, 2453 tasi (10,4 %) - qurilishda, 1510 tasi (6,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1354 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1175 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 994 tasi (4,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 519 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2985 tasi (12,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3780 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 14,8% ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (676 ta), Qo'qon (525 ta), Marg'ilon (348 ta) shaharlarida, Oltiariq (219 ta) va Buvayda (192 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (74 ta), Beshariq (113 ta) hamda Qo'shtepa (85 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1155 ta), savdoda (889 ta), boshqa turdagi xizmatlar (412 ta), qurilishda (462 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (248 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (229 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (88 ta),

tashish va saqlashda (178 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (119 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 2757 tani tashkil etib, ulardan 2733 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 26,8 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 48,8 % yoki 1345 tasi sanoat, 13,5 % yoki 372 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,1 % yoki 361 tasi savdo, 9,7 % yoki 267 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 % yoki 66 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 31 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 36 tasi qurilish, 0,9 % yoki 24 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,2 % yoki 255 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 833 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -584 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida viloyatda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida viloyatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017 yilda 1417 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 833 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 584 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 833 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 223 tasi (26,8 %) savdo, 213 tasi (25,6 %) sanoat, 87 tasi (10,4 %) qurilish, 43 tasi (5,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 46 tasi (5,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 39 tasi (4,7 %) tashish va saqlashda, 43 tasi (5,2 %) axborot va aloqada, 7 tasi (0,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 132 tasi (15,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.01.2018 yil | | 01.01.2019 yil | | |
|--|-----------------|-----------------------|-----------------|-----------------------|--------------|
| | Soni (birlikda) | jamiga nisbatan, % da | Soni (birlikda) | Jamiga nisbatan, % da | Farqi, (+,-) |
| Jami | 1417 | 100,0 | 833 | 100,0 | -584 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 83 | 5,9 | 43 | 5,2 | -40 |
| sanoat | 241 | 17,0 | 213 | 25,6 | -28 |
| qurilish | 120 | 8,5 | 87 | 10,4 | -33 |
| savdo | 333 | 23,5 | 223 | 26,8 | -110 |
| tashish va saqlash | 52 | 3,7 | 39 | 4,7 | -13 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 54 | 3,8 | 46 | 5,5 | -8 |
| axborot va aloqa | 72 | 5,1 | 43 | 5,2 | -29 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 303 | 21,4 | 7 | 0,8 | -296 |
| boshqa turlari | 159 | 11,2 | 132 | 15,8 | -27 |

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 775 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 271 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 221 tasi (28,5%) savdo, 211 tasi (27,2 %) sanoat, 87 tasi (11,2 %) qurilishda, 43 tasi (5,5 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 45 tasi (5,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 39 tasi (5,0 %) tashish va saqlashda, 43 tasi (5,5 %) axborot va aloqada, 4 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 82 tasi (10,6 %) boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Farg'ona shahrida -59 ta, Marg'ilon shahrida -76 ta, Quva tumanida -73 ta hamda Uchko'prik tumanida -23 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi Tel.:73-241-72-33